

PAPER

PLATONNING "DAVLAT" VA ARISTOTELNING "SIYOSAT" ASARLARIDA SIYOSIY ONG SHAKILLANISHIGA OID FALSAFIY QARASHLAR

Axmedov Raxmatjon Nematjon o'g'li ^{1,*}

¹TDIU To'rtko'l fakulteti "Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi

*axmedovraxmatjon826@gmail.com

Abstract

Ushbu ilmiy maqolada Platonning "Davlat" (Politeia) va Aristotelning "Siyosat" (Politika) asarlarida ifodalangan siyosiy ong tushunchasining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Antik davrning ushbu ikki buyuk faylasufining siyosiy ongni shakllantirish, uni tarbiyalash va jamiyat hayotidagi ahamiyatiga oid qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy tahlil va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Platon idealistik, Aristotel esa realistik yondashuv asosida siyosiy ongni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqqanlar.

Key words: Platon, Aristotel, siyosiy ong, "Davlat", "Siyosat", ta'lim falsafasi, fuqarolik madaniyati

KIRISH

Antik yunon falsafasida siyosiy ong tushunchasi jamiyat falsafasining markazida turgan. Platon (miloddan avvalgi 428/427–348/347)[1] va Aristotel (miloddan avvalgi 384–322) [2] siyosiy ongni nafaqat individual tushuncha, balki butun jamiyat tuzilishining asosi sifatida ko'rib chiqqanlar.

Platonning "Davlat"[3] asari ideal jamiyat qurilishining falsafiy asoslarini yoritgan bo'lsa, Aristotelning "Siyosat"[4] asari real siyosiy tizimlarni tahlil qilishga qaratilgan. Ikkala

faylasufning ham siyosiy ongni shakllantirishga oid qarashlari zamonaviy fuqarolik ta'limi va siyosiy tarbiya konsepsiyalariga katta ta'sir ko'rsatgan. Aynan shu ikki antik davr faylasuflari bugungi davr jahon siyosiy sivilizatsiyasining memorlari sifatida qarashimiz mumkin. Darhaqiqat aynan bugungi kunda jamiyatda insonlarning davlat va siyosiy tashkilotlar faoliyatida ishtirokining muhim jihatlarini chuqur anglab yetishimiz zarurati yotibdi. Shu jihatdan olib qarasaq qadimgi yunon faylasuflari bugungi davlat va huquq tizimi shakllanishidagi muhim g'yalarning mualliflari

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

sifatida etirof etiladi. "Platon va Aristotelning siyosiy falsafasi nafaqat G'arb, balki Sharq falsafiy an'analariga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ularning siyosiy ong haqidagi qarashlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan". [5]

MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Antik davr falsafasi barcha davrlar uchun qiziq, keng fikrlar va muhokamalarga sabab bo'ladigan davr hisoblanadi. Shu bois bu davr faylasuflari ilmiy merosini tadbiq etish yangi davr faylasuflarining ham diqqat markazida bo'lib kelmoqda. XX asr boshlarida yashagan shotland faylasufi John Burnet (1863–1928) [6] o'zining "Greek Philosophy: Thales to Plato", asarida Platonning falsafiy qarashlarini tahlil qilar ekan bir qancha ma'lumotlar berib o'tadi. Jumladan: "Platon uchun siyosiy hikmat — tajriba yoki an'ana masalasi emas, balki bilim, ayniqsa G'oyalar, xususan Yaxshilik G'oyasi haqidagi bilimdir. Faqat dialektika yordamida buni idrok etgan kishiga hokimiyat ishonib topshirilishi mumkin".[7, 89] J.Burnet Platonning tarbiya nazariyasini o'rgangan holda, uning siyosiy ongni shakllantirishda ta'limning roli haqidagi qarashlarini tahlilini olib borar ekan "Platon uchun ta'lim — inson ruhini haqiqat nuriga qaratish san'atidir. Bu bo'sh onglarga bilim solish emas, balki inson ichida mavjud aqlni uyg'otishdir", deb takidlaydi. Bunda jamiyatning ta'limga qaratilgan etibori o'laroq yangi siyosiy qarashlar va hokimiyatga intilish jabhalarini ochib beradi. "Platon uchun siyosiy ong - bu falsafiy bilim asosida shakllanadigan hodisa"[7, 89] ekanligini qayd qilib o'tgan. Yana bir mashxur avstriyalik faylasuf Karl Popper (1902–1994)[8] o'zining "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asarida platon va uning qarashlariga baho berar ekan bazi bir jihatlarini tanqid ostiga olgan bo'lsa bazi bir jihatlarini alohida qayd etib ketgan. Misol uchun Karl Poppoerning yuqorida nomi zikr etilgan asarida Platon siyosiy falsafasini tanqid qilishning markaziy g'oyasini ifodalaydi. Unga ko'ra, Platon siyosiy ongni (ya'ni fuqaroning siyosiy hayotga munosabati, adolat, erkinlik, fuqarolik majburiyatlarini tushinishi) barcha fuqarolar uchun emas, balki maxsus tarbiyalangan — "faylasuflar" deb atalgan siyosiy elit uchun shakllantirishni nazarda tutgan.[9]

Bu g'oya zamonaviy demokratik qadriyatlar (fuqarolik tengligi, erkinlik, siyosiy ishtirok) bilan ziddiyat tashkil qiladi, shu sababli ham Popper uni tanqid qiladi. Darhaqiqat zamonaviy jamiyatni shakllantirishdagi eng muhim jihatlardan biri bu shaxsning jamiyatda boshqa shaxs bilan har bir huquq jabhasida teng ekanligini ilgari suradi. Yana bir mashxur nemis faylasufi Werner Jaeger (1888–1961) [11] Aristotelning siyosiy falsafasiga oid adabiyotlar uning empirik va realistik yondashuvini tahlil qiladi.

W.Jaeger Aristotelning ta'lim falsafasini o'rgangan holda, uning siyosiy ongni shakllantirishda amaliy tajribaning ahamiyati haqidagi qarashlarini yoritgan bo'lsa [12] Amerikalik faylasuf M.Nussbaum [13] 1986-yilda yozgan "The Fragility of Goodness: Luck and Ethics in Greek Tragedy and Philosophy" asarida Aristotelning inson rivojlanishi nazariyasini zamonaviy kontekstda tahlil qilgan. Uning fikricha, "Aristotelning 'zoon politikon' tushunchasi insonning ijtimoiy tabiatini anglashda hal qiluvchi ahamiyatga ega".[14]

Amerikalik boshqa bir R. Krautning[15] Aristotle: Political Philosophy asarida quydagicha fikr bildirgan "Platon siyosiy ongni oddiy tajribadan tashqari bo'lgan idealga murojaat qilish orqali tushunishga harakat qiladi, Aristotel esa haqiqiy siyosiy hayotning ma'lumotlaridan boshlab, uni mantiqiy tahlil orqali takomillashtirishga urinadi. Ushbu metodologik farq ularning siyosiy ong haqidagi tushunchalarini chuqur shakllantirgan". [16]

Mahalliy olimlarimizda T.Qoriyevning Platonning qarashlarida shaxsning tarbiyalashga oid qarashlarini tahlil qilib o'tgan. Uning fikricha, "Platonning bosqichma-bosqich ta'lim modeli zamonaviy ta'lim tizimlari uchun qimmatli tajribadir". [10] Darhaqiqat Platon Davlat asarining 2-kitobi Soqchilarni ikki xil musiqiy va gimnastik tarbiyalash bobida tarbiya qanday bo'ladi deb o'rta ratorik savol qo'yar ekan quydagicha javob berib o'tadi: Badan uchun - gimnastik, rux uchun - musiqiy deb izoh berib o'tadi. [3, 92].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Matnlar tahlili

Platonning "Davlat" va Aristotelning "Siyosat" asarlarining asl matnlari va tarjimalari chuqur tahlil qilindi. Asarlarning asosiy g'oyalari, konsepsiyalari va argumentlari aniqlandi.

2. Qiyosiy tahlil

Ikkala faylasufning siyosiy ong haqidagi qarashlari quyidagi jihatlaridan solishtirildi:

- Siyosiy ongning mohiyati
- Uni shakllantirish mexanizmlari
- Ta'lim va tarbiyaning roli
- Ideal jamiyat tuzilishi
- Fuqaroning jamiyatdagi o'rni

3. Tarixiy-kontekstual tahlil

Platon va Aristotelning qarashlari ularning tarixiy davri, ijtimoiy-siyosiy sharoitlari va falsafiy an'analari kontekstida tahlil qilindi.

4. Mantiqiy tahlil

Ikkala faylasufning asosiy falsafiy argumentlari mantiqiy tahlil qilindi, ularning tuzilishi va isbotlanishi o'rganildi.

5. Sistemli yondashuv

Siyosiy ong tushunchasi falsafiy, pedagogik, ijtimoiy va siyosiy sistemlar doirasida kompleks tahlil qilindi.

NATIJALAR

1.1 Siyosiy ongning ontologik asoslari

Platonning "Davlat" asarida siyosiy ong G'oyalar olami haqidagi bilimga asoslanadi. Uning fikricha, haqiqiy siyosiy ong faqat G'oyalar dunyosini idrok etgan faylasuflarda shakllanadi. Platon bu haqda shunday deydi: "Hukmdorlar faylasuflar bo'lishi kerak, toki ular haqiqatni ko'ra oladigan yagona kishilardir" [3, 263] deydi, Kishida siyosiy ongning shakllantirish borasida esa uni tarbiyalash jarayonlarini ilgari surgan holda quydagilarni taklif qiladi.

1.2. Bosqichma-bosqich ta'lim modeli

Platon siyosiy ongni 4 bosqichli ta'lim orqali shakllantirishni taklif qiladi: [3, 169]

1.3. Siyosiy ongning ijtimoiy asoslari

Platonning jamiyat modelida har bir sinf o'ziga xos siyosiy ongga ega:

1.4. Adolat tamoyili

Platon uchun siyosiy ongning asosi adolat tamoyilidir. U adolatni har bir kishi o'ziga mos ishni bajarishi deb tushunadi: "Adolat - bu

	Bosqich	Yoshi	Ta'lim mazmuni	Maqsadi
1	Musiqi va gimnastika	7-17	Musiqi, she'riyat, jismoniy tarbiya	Xarakter shakllantirish, go'zallik sezgisi
2	Matematika va geometriya	18-20	Matematika, geometriya, astronomiya	Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish
3	Dialektika	20-30	Falsafa, mantiq, munozara	G'oyalarni idrok etish
4	Amaliy tajriba	30-35	Davlat boshqaruvi	Bilimni amalda qo'llash

Ijtimoiy sinf	Ruhdagi hukmron tamoyil	Siyosiy ong darajasi	Asosiy xususiyatlari
Hukmronlar (faylasuflar)	Aql	Yuqori darajadagi falsafiy-siyosiy ong	— G'oyalar olamini idrok qilish; — Adolat, yaxshilik va haqiqatni bilish; — Aqlga asoslangan qaror qabul qilish
Qo'riqchilar (jangchilar)	G'azab (qahramonlik hissi)	Vatanparvarlik va sadoqatga asoslangan siyosiy ong	— Davlatga nisbatan sadoqat; — Harbiy intizom; — Hukmronlarga itoatkorlik
Ishlab chiqaruvchilar (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar)	Ishtiho (moddiy ehtiyoj)	Mehnat axloqi asosidagi cheklangan siyosiy ong	— Mehnatsevarlik; — Qonunlarga rioya; — Siyosiy hayotga aralashmaslik

har bir kishining o'ziga xos ishini bajarishi va boshqalarning ishiga aralashmasligidir [3, 207]

2. Aristotelning "Siyosat" asarida siyosiy ongni shakllantirish

2.1. "Zoon politikon" konsepsiyasi

Aristotel insonni tabiatan siyosiy mavjudot ("zoon politikon") deb hisoblaydi. Uning fikricha, siyosiy ong insonning tabiiy xususiyati hisoblanadi: "Inson tabiatan siyosiy mavjudotdir. Kimki tabiatan jamiyatdan tashqari yashay oladi, u yoki xudo, yoki hayvondir" [4, 378]

2.2. Empirik yondashuv

Aristotel Platonning idealistik yondashuvidan farqli ravishda, siyosiy ongni empirik tajriba asosida shakllanadi deb hisoblaydi. U turli davlat tuzilmalarini o'rganish orqali optimal siyosiy tizim haqida xulosalar chiqaradi.

2.3. O'rtacha yo'l tamoyili

Aristotel siyosiy ongni shakllantirishda o'rtacha yo'l (mesotes) tamoyilini qo'llaydi. Bu tamoyilga ko'ra, siyosiy ong ifrat va tafrit o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

2.4. Fuqarolik ta'limi

Aristotel fuqarolik ta'limini siyosiy ongni shakllantirishning asosiy vositasi deb biladi. Uning fikricha, ta'lim quyidagi maqsadlarga qaratilishi

kerak:

1. Yaxshi odam va yaxshi fuqaro sifatida tarbiyalash
2. Fazilatli xarakter shakllantirish
3. Jamoat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash

2.5. Konstitutsiyaviy bilim

Aristotel siyosiy ongni konstitutsiyaviy bilim bilan bog'laydi. Uning fikricha, har bir fuqaro o'z davlatining konstitutsiyasini, qonunlarini va institutlarini bilishi kerak.

3. Qiyosiy tahlil natijalari Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi nuqtayi nazarga kelishimiz mumkin.

	Mezon	Platon	Aristotel
1	Yondashuv usuli	Idealistik Normativ	Realistik, empirik
2	Siyosiy ong manbai	G'oyalar olamidagi bilim	Empirik tajriba va kuzatish
3	Ta'lim modeli	Bosqichma-bosqich, ierarxik	Differensial, individual
4	Fuqaro tushunchasi	Ijtimoiy funktsiyasi bo'yicha aniqlanadi	Tabiiy siyosiy mavjudot
5	Adolat tushunchasi	Har kim o'z o'rnida	O'rtacha yo'l, muvozanat
6	Ideal davlat	Faylasuflar hukmronligi	O'rtacha sinf hukmronligi
7	Tarbiya usuli	Musiqi va gimnastika	Amaliy fazilatlar

MUHOKAMA

1. Nazariy jihatlar

1.1. Epistemologik farqlar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Platon va Aristotelning siyosiy ong haqidagi qarashlaridagi asosiy farq ularning bilish nazariyasidagi farqlardan kelib chiqadi. Platon aqliy idrokni, Aristotel esa sezgi va tajribani ustun qo'yadi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz kerakki "Platonning idealizm va Aristotelning realizmi ularning butun falsafiy sistemalariga, shu jumladan siyosiy falsafasiga ham ta'sir ko'rsatgan"[5, 178]

1.2. Siyosiy ontologiyadagi farqlar

Platon siyosiy ongni metafizik asosda, Aristotel esa tabiiy asosda tushuntiradi. Bu farq ularning inson tabiati haqidagi qarashlarida ham o'z ifodasini topadi.

1.3. Ta'lim falsafasidagi farqlar

Platonning ta'lim modeli ierarxik va bosqichli bo'lsa, Aristotelning modeli differensial va individualdir. Platon ta'limni sinfiy printsip asosida, Aristotel esa individual qobiliyatlar asosida

tashkil etishni taklif qiladi.

2. Amaliy jihatlar

2.1. Zamonaviy ta'lim tizimlariga ta'siri

Platonning bosqichma-bosqich ta'lim modeli zamonaviy ta'lim tizimlarining yosh guruhlariga bo'linishiga asos bo'lgan. Aristotelning empirik yondashuvi esa zamonaviy eksperimental ta'lim metodlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Talim jarayonlarini qanday olib boorish borasida bir qancha maliy hamda nazariy tavsiyalarni berib bu ustida o'zlarining qarashlarini tushuntirib o'tishgan. "Platonning musiqiy tarbiya g'oyasi O'zbekistondagi estetik tarbiyaning, Aristotelning amaliy ta'lim g'oyasi esa kasb-hunar ta'limining rivojlanishiga hissa qo'shgan"[10, 134]

2.2. Fuqarolik ta'limidagi ahamiyati

Ikkala faylasufning ham fuqarolik ta'limi haqidagi qarashlari zamonaviy fuqarolik ta'limi dasturlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan:

Platonning hissasi:

- Ideallik va ma'naviyatni ta'limda ustun qo'yish
- Bosqichma-bosqichlik printsipi
- Falsafiy tafakkurni rivojlantirish

Aristotelning hissasi:

- Amaliy hayot bilan bog'liqlik
- Individual qobiliyatlarni hisobga olish
- Fazilatli xarakter tarbiyasi

2.3. Siyosiy tizimlarning rivojlanishiga ta'siri

Platonning faylasuflar hukmronligi g'oyasi elitizmning, Aristotelning o'rtacha sinf hukmronligi g'oyasi esa o'rta sinfning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishining nazariy asosini yaratgan.

3. Muammolar va cheklovlar

3.1. Tarixiy cheklovlar

Ikkala faylasufning ham qarashlari ularning davrining cheklovlari bilan belgilangan:

- Quldorlik tizimini tabiiy deb hisoblash
- Ayollarning siyosiy huquqlarini cheklash
- Cheklangan demokratik tushunchalar

3.2. Zamonaviy kontekstda qo'llash cheklovlari

Platonning elitistik yondashuvi zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan ziddiyat tashkil qiladi. Aristotelning o'rtacha yo'l tamoyili esa murakkab zamonaviy muammolarni hal qilishda yetarli emas.

4. Takliflar va tavsiyalar

4.1. Ta'lim tizimini takomillashtirish

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Integratsiyalashgan yondashuv: Platonning idealistik va Aristotelning realistik yondashuvlarini uyg'unlashtirish.

2. Bosqichma-bosqichlik va individualizatsiyani uyg'unlashtirish: Platonning bosqichma-bosqich modeli bilan Aristotelning individual yondashuvini birlashtirish.

3. Falsafiy va amaliy ta'limni integratsiyalash: Platonning falsafiy ta'lim g'oyasi bilan Aristotelning amaliy ta'lim g'oyasini birlashtirish.

4. Global va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish: Antik an'analar bilan milliy madaniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish.

4.2. O'zbekiston sharotiga moslashtirish

O'zbekiston ta'lim tizimi uchun quyidagi tavsiyalar:

1. Ma'naviy-estetik tarbiyani kuchaytirish: Platonning musiqiy tarbiya g'oyasidan O'zbekiston an'analariga mos ravishda foydalanish.

2. Amaliy yo'nalishni rivojlantirish: Aristotelning amaliy ta'lim g'oyalarini zamonaviy kasb-hunar ta'limiga tatbiq etish.

3. Fuqarolik ta'limini takomillashtirish: Ikkala faylasufning fuqarolik ta'limi haqidagi g'oyalarini zamonaviy O'zbekiston realitetiga moslashtirish.

XULOSA

Ushbu ilmiy tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Asosiy falsafiy farqlar: Platon va Aristotelning siyosiy ong haqidagi qarashlaridagi asosiy farq ularning epistemologik va ontologik pozitsiyalaridagi farqlardan kelib chiqadi. Platon idealistik, Aristotel esa realistik yondashuvni ifodalaydi.

2. Ta'lim modellaridagi farqlar: Platon bosqichma-bosqich, ierarxik ta'lim modelini taklif qilsa, Aristotel differensial va individual yondashuvni ilgari suradi. Bu farq ularning inson tabiati va jamiyat tuzilishi haqidagi qarashlarida o'z ifodasini topadi.

3. Fuqaro tushunchasidagi farqlar: Platon fuqaroni uning ijtimoiy funktsiyasi bo'yicha, Aristotel esa insonning tabiiy siyosiy mavjudot sifatida tushuntiradi. Bu farq ularning adolat va tenglik haqidagi qarashlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

4. Zamonaviy ahamiyat: Ikkala faylasufning ham qarashlari zamonaviy ta'lim tizimlari, fuqarolik ta'limi va siyosiy tarbiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

5. O'zbekiston sharotidagi ahamiyati: Platonning ma'naviy-estetik tarbiya g'oyalari O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy an'analariga, Aristotelning amaliy ta'lim g'oyalari esa kasb-hunar ta'limi islohotlariga mos keladi. Ikkala yondashuvni uyg'unlashtirish O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

6. Integrativ yondashuv zarurati: Zamonaviy sharoitda siyosiy ongni shakllantirishda Platonning idealistik va Aristotelning realistik yondashuvlarini uyg'unlashtirish zarur. Bu yondashuv nafaqat nazariy bilim, balki amaliy tajribani ham o'z ichiga oladi.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, Platon va Aristotelning siyosiy ong haqidagi qarashlari antik falsafaning eng muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Ularning g'oyalari nafaqat o'z davrida, balki keyingi barcha davrlarda siyosiy falsafa va ta'lim nazariyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston sharotida bu g'oyalarni milliy madaniy an'analar va zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aflotun>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Arastu>
3. Афлотун “Давлат”. “Янги аср авлоди”, 2024й
4. Аристотель. Сочинения в читеких томах “Мысль”. 1983
5. M.Rahimov. Falsafa tarixi. Toshkent: O'qituvchi. (2017). 156b
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/John_Burnet\(classicist\)](https://en.wikipedia.org/wiki/John_Burnet(classicist))
6. Burnet, J. Greek Philosophy: Thales to Plato. London: Macmillan 1994. 89p
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Karl_Popper

7. Popper, K. The Open Society and Its Enemies. London: Routledge. 1945. 134p
8. T.N.Qoriyev. Ta'lim falsafasi: antik an'analar va zamonaviy talablar. Toshkent: Fan 2018. 112b.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Werner_Jaeger
9. Jaeger, W. Paideia: The Ideals of Greek Culture. Oxford: Oxford University Press 1934.
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Martha_Nussbaum
10. Nussbaum, M. The Fragility of Goodness. Cambridge: Cambridge University Press. 1986. 178p
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Richard_Kraut
11. Kraut, R. Aristotle: Political Philosophy. Oxford: Oxford University Press. 2002. 156p